

2022- yil uchun Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,
mlrd. so'm

147 414,6

YAHM o'sish
sur'ati

107,9 %

YAHM deflyator
indeksi

112,2 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil uchun Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 147 414,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 7,9 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yil narxlariga nisbatan 112,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 16,6 % ga yetdi.



**2022- yil uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM
ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. YAHM, jami	121 779,8	147 414,6	107,9
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	110 162,3	132 824,6	107,7
mahsulotlarga sof soliqlar	11 617,5	14 590,0	109,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	110 162,3	132 824,6	107,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	49 714,3	57 956,8	104,9
sanoat	38 622,2	44 533,9	106,0
qurilish	11 092,1	13 422,9	101,1
xizmatlar	60 448,0	74 867,8	109,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16 764,8	20 488,6	107,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	13 272,9	17 198,2	121,5
boshqa xizmat tarmoqlari	30 410,3	37 181,0	106,0



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 50 675,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6 % ga yuqoridir.

**Aholi jon boshiga hisoblangan
YAHMning o'sish sur'atlari**
*(o'tgan yilning mos davriga
nisbatan % hisobida)*



**Aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi**
(ming so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	90,5	90,1
mahsulotlarga sof soliqlar	9,5	9,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	45,2	43,6
sanoat	35,1	33,5
qurilish	10,1	10,1
xizmatlar	54,8	56,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15,2	15,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	12,0	12,9
boshqa xizmat tarmoqlari	27,6	28,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2021- yil



Sanoat

35,1%

Qurilish

10,1%

Xizmatlar

54,8%

2022- yil



Sanoat

33,5%

Qurilish

10,1%

Xizmatlar

56,4%

● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**

2022- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 90,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog'ining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 33,5% ni, qurilish 10,1 % ni va xizmatlar sohasi 56,4 % ni tashkil qildi.



2022- yil uchun YAHM o'sishida
tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)

YAHM




7,9

Sanoat



1,9

Qurilish



0,1

Xizmatlar



4,9

Mahsulotlarga
sof soliqlar





1,0

YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 1,9 f.p. (2021-yilda –5,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,1 f.p. (2021-yilda – 1,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 4,9 f.p. (2021- yilda – 7,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 1,0 f.p. (2021- yilda – 1,6 f.p.)ga ko'paydi.



YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



■ 2021- yil
■ 2022- yil


2022- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda 106,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 33,5 %), qurilishda – 101,1% (10,1 %) va xizmatlar sohasida – 109,9 % ni (56,4%) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,9 % (15,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 121,5% (12,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,0 % dan (28,1%) iborat bo'ldi.



YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM




Sanoat




Qurilish



Xizmatlar



Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)



2022- yilda kichik tadbirkorlik 62 139,5 mlrd. so‘mni tashkil etib (2021- yilda – 53 792,7 mlrd. so‘m), YAHMdagi ulushi 46,8%ni tashkil qildi (2021- yilda – 48,8%).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

